



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI

Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich

Namangan davlat texnika universiteti, Mustaqil izlanuvchi

E-mail: egamberdiyevabdujabbor1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mehnat bozori rivojlanishidagi o'rni hamda ularning bandlik darajasiga ta'siri kompleks iqtisodiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va hududiy bandlikni kengaytirishdagi ahamiyati baholanadi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan institutsional va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishchi kuchi tarkibi, malaka talablari, ish haqi dinamikasi hamda mehnat resurslarining tarmoqlar kesimidagi taqsimlanishiga ta'siri o'rganiladi. Tahlil rasmiy statistik ma'lumotlar, mehnat bozori ko'rsatkichlari va amaliy tajribalar asosida olib borilib, kichik biznesning bandlikni ta'minlashdagi strategik roli ochib beriladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik faoliyatida uchrayotgan moliyaviy cheklovlar, tartibga solish to'siqlari va malaka nomuvofiqligi kabi muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, bandlik darajasi, ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy diversifikatsiya, tadbirkorlik faoliyati, mehnat resurslari, hududiy bandlik, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article provides a comprehensive economic analysis of the role of small business and private entrepreneurship in the development of the labor market in Uzbekistan and their impact on employment levels. The study assesses the importance of small business entities in creating new jobs, increasing household incomes, diversifying the economy, and expanding regional employment. It also examines the influence of state-implemented institutional and financial support mechanisms on workforce structure, skill requirements, wage dynamics, and the sectoral distribution of labor resources. The analysis is based on official statistical data, labor market indicators, and practical experience, revealing the strategic role of small businesses in ensuring employment. In addition, the study identifies key challenges such as financial constraints, regulatory barriers, and skills mismatches, and proposes scientifically grounded recommendations to address these issues.

Key words: labor market, small business, private entrepreneurship, employment level, job creation, economic diversification, entrepreneurial activity, labor resources, regional employment, economic development.

Аннотация. В статье проводится комплексный экономический анализ роли малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии рынка труда Узбекистана и их влияния на уровень занятости населения. В исследовании оценивается значение субъектов малого предпринимательства в создании новых рабочих мест, повышении доходов населения, диверсификации экономики и расширении территориальной занятости. Также рассматривается влияние реализуемых государством институциональных и финансовых механизмов поддержки на структуру рабочей силы, требования к квалификации, динамику заработной платы и распределение трудовых ресурсов по отраслям экономики. Анализ основан на официальных статистических данных, показателях рынка труда и практическом опыте, что позволяет раскрыть стратегическую роль малого бизнеса в обеспечении занятости. Наряду с этим выявляются такие проблемы, как финансовые ограничения, регуляторные барьеры и несоответствие квалификации, а также разрабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации по их преодолению.

Ключевые слова: рынок труда, малый бизнес, частное предпринимательство, уровень занятости, создание рабочих мест, экономическая диверсификация, предпринимательская деятельность, трудовые ресурсы, территориальная занятость, экономическое развитие.



KIRISH

Mehnat bozori har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi hamda bandlikni yaratish va fuqarolarning turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini aks ettiradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda hukumatning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan yondashuvda muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu yo'nalishdagi asosiy qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi PF-4354-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi bo'lib, mazkur hujjat sohani rivojlantirishga sezilarli turtki berdi [1].

Mazkur davrda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, ularning bandlik imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdagi rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu maqolada tadbirkorlikni rag'batlantirish va kichik biznesning o'sishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat siyosati va tashabbuslarining ta'siriga alohida e'tibor qaratilib, so'nggi hamda joriy yillardagi mehnat bozori dinamikasi tahlil qilinadi. Mehnat bozori tendensiyalarini, jumladan, bandlik darajasidagi o'zgarishlar, ishchi kuchi tarkibidagi siljishlar va mintaqalararo tafovutlarni chuqur o'rganish orqali ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor umumiy bandlik muhitiga qanday ta'sir ko'rsatgani bo'yicha muhim xulosalar taqdim etiladi [2].

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ish o'rinlari yaratishga sezilarli hissa qo'shgan qishloq xo'jaligi, chakana savdo va ishlab chiqarish kabi muhim tarmoqlardagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mehnat bozorining mazkur islohotlarga moslashuviga ta'sir ko'rsatgan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari hamda mehnat malakalarini rivojlantirish bilan bog'liq jihatlar ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonning kichik biznes faolligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarining natijalari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ushbu maqola tadbirkorlikni davlat siyosati asosida qo'llab-quvvatlash bandlikni mustahkamlash va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi haqida har tomonlama ilmiy tushuncha beradi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'ychiyevich, X.R. tadqiqot ishida asosiy statistik ko'rsatkichlar va siyosiy tahlillar asosida O'zbekistondagi mehnat bozori kon'yunkturasining qisqacha tavsifi berilgan. O'zbekiston mehnat bozori qariyb 34 million nafar aholiga ega bo'lib, ishchi kuchi umumiy aholining 60 foizga yaqinini tashkil etadi. Mamlakatda ishsizlik darajasi taxminan 9 foizni, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik esa 15 foizni tashkil etadi, bu esa yoshlarni iqtisodiy faoliyatga kengroq jalb etish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mehnat bozorida gender tafovutlari ma'lum darajada saqlanib qolayotgan bo'lib, bu ayollarning ayrim sohalarga kirish imkoniyatlariga hamda ish haqi darajasidagi farqlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozorida norasmiy sektorning sezilarli ulushi mavjudligi bandlikni rasmiylashtirish, mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyani yanada mustahkamlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Nodirabegim, O.R. Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimizda aholi bandligi sohasida davlat siyosatining ahamiyati va dolzarbligi yoritilgan. Unda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash masalalari, ish beruvchi korxona va tashkilotlar tomonidan yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha yondashuvlar, takliflar hamda xalqaro tajribalar tahlil qilinadi va umumlashtirilgan xulosalar keltiriladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, xususan, kasbiy ta'limni rivojlantirish va malaka oshirishga yo'naltirilgan ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha tashabbuslar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mehnat migratsiyasi ham muhim omillardan biri bo'lib, ko'plab O'zbekiston fuqarolari xorijda mehnat faoliyatini olib borib, pul o'tkazmalari orqali ichki iqtisodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonlarni chuqur tushunish O'zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiyotida inklyuziv o'sishni ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan samarali siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, bandlikni oshirish, gender tengligini mustahkamlash, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish, yoshlar salohiyatidan yanada samarali foydalanish hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun mehnat bozori natijalarini optimallashtirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur [3].



TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat bozorini tahlil qilish aholi bandligi tendensiyalari, ishbilarmonlik faolligi hamda umumiy iqtisodiy manzarada sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu bo'limda mehnat bozorining turli ko'rsatkichlari asosida shakllangan asosiy xulosalar yoritilib, hukumat tashabbuslari va amalga oshirilayotgan islohotlarning ish o'rinlarini yaratish jarayoniga, ishchi kuchi tarkibiga hamda hududiy bandlik modellariga ta'siri tahlil qilinadi. Olingan natijalar bir tomondan ijobiy siljishlarni aks ettirsa, boshqa tomondan mehnat bozorining barqaror va uzoq muddatli o'sishini ta'minlash uchun e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ayrim masalalar mavjudligini ham ko'rsatadi.

So'nggi yillarda kuzatilgan eng muhim natijalardan biri aholi bandligi darajasining izchil oshib borayotganidir. Ushbu jarayon, avvalo, iqtisodiy faollikning kuchayishi, tadbirkorlik subyektlari sonining ko'payishi hamda davlat tomonidan bandlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar bilan izohlanadi. Quyidagi 1-jadvalda so'nggi besh yil davomida bandlik darajasidagi o'zgarishlar keltirilgan bo'lib, u mehnat bozorida ijobiy tendensiyalarni yaqqol namoyon etadi.

1-jadval. Bandlik darajasi

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	68,1	66	67	67,2	67,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	62,9	62	61,1	61,6	62,9
Andijon viloyati	70,1	66,5	68,2	69,5	70,6
Buxoro viloyati	69,3	68,3	67,2	67,2	68,7
Jizzax viloyati	67,1	66,2	67,5	66,2	66,3
Qashqadaryo viloyati	63,9	60,9	62,2	61,9	61,9
Navoiy viloyati	69,5	66,8	68,3	67,7	69,8
Namangan viloyati	66,4	65	65,5	64,8	65,9
Samarqand viloyati	65,3	63,2	63,7	64,7	65
Surxondaryo viloyati	67	63,9	64,5	64,2	63,8
Sirdaryo viloyati	68,9	64,8	64,5	64	63,8
Toshkent viloyati	71,4	68,2	72,4	71	72,2
Farg'ona viloyati	67,5	65,1	66,2	67,1	68,4
Xorazm viloyati	66,1	63,7	64	64,7	66,9
Toshkent shahri	80,1	81,7	81,3	82,5	82,3

Respublika miqyosida 2019-yilda 68,1 foizni tashkil etgan bandlik darajasi 2023-yilga kelib 67,9 foizga pasaydi. Mazkur ko'rsatkich tashqi va ichki omillar ta'sirida ma'lum darajada o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali bandlik darajasini barqarorlashtirish va bosqichma-bosqich oshirishga intilish kuzatilmoqda. Bu jarayon nafaqat mazkur sohaning, balki umuman milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, hukumatning kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan siyosati, xususan, qishloq xo'jaligi, chakana savdo va yengil sanoat kabi muhim tarmoqlarda minglab yangi ish o'rinlari yaratilishiga zamin yaratdi. Kichik va o'rta biznes subyektlari (KO'B) mehnat resurslarini jalb etishda muhim rol o'ynadi, ayniqsa ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan qishloq hududlarida. Normativ-huquqiy talablarni soddalashtirish, mikromoliyalashtirish orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda soliq imtiyozlarining joriy etilishi kichik biznes subyektlariga o'z faoliyatini kengaytirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish uchun zarur sharoit va resurslarni taqdim etdi [6].

Ishchi kuchi tarkibidagi o'zgarishlar: Mehnat bozori tahlili mazkur davrda ishchi kuchi tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Kichik korxonalar faoliyatining kengayishi bilan tadbirkorlik va texnik ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlarga bo'lgan talab ortib bordi. Xususiy tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratilishi o'z-o'zini ish bilan ta'minlash darajasining oshishiga olib keldi. Natijada, ko'plab fuqarolar an'anaviy yollanma mehnat o'rniga o'z biznesini tashkil etishni afzal ko'ra boshladi. Ushbu tendensiya, ayniqsa, yoshlar orasida yaqqol namoyon bo'lib, bunga yangi boshlovchilar uchun mo'ljallangan qo'llab-quvvatlash dasturlarining mavjudligi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.



Shuningdek, mehnat bozorida ayollarning ishtirokida ham sezilarli o'sish kuzatildi. Davlat tomonidan biznesda gender tengligini qo'llab-quvvatlash va tadbirkor ayollarni rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslar natijasida ko'proq ayollar o'z biznesini yo'lga qo'yish yoki an'anaviy ravishda erkaklar ustunlik qilgan sohalarida mehnat faoliyatini boshlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu jarayon mehnat bozorining diversifikatsiyalashuviga va inklyuziv iqtisodiy o'sishga ijobiy hissa qo'shdi.

Mintaqaviy tafovutlar va tarmoqlar kesimidagi bandlik: Mehnat bozorida umumiy ijobiy siljishlar kuzatilganiga qaramay, bandlik o'sishida mintaqaviy tafovutlar saqlanib qoldi. Infratuzilma, bozorlar va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengroq bo'lgan shahar hududlarida, xususan Toshkent shahrida bandlik sur'atlari yuqoriroq bo'ldi. Qishloq hududlarida esa ish o'rinlari yaratilish sur'atlari nisbatan pastroq bo'lib, qishloq xo'jaligi hanuzgacha asosiy bandlik manbai sifatida saqlanib qolmoqda. Hukumat tomonidan qishloq tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ijobiy natijalar bermoqda, biroq infratuzilma rivojining cheklanganligi, moliyalashtirish imkoniyatlarining yetarli emasligi va bozor integratsiyasining sustligi ushbu hududlarda kichik biznes salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda [7].

Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida ish o'rinlari yaratish hajmi yuqori bo'lib, chakana savdo va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishlarida kichik biznes muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, sanoat sektori, ayniqsa yuqori texnologiyalar va qayta ishlash tarmoqlarida kichik biznes ishtiroki va yangi ish o'rinlari yaratish sur'atlari nisbatan pastroq bo'lib qolmoqda. Bu holat asosan yuqori kapital talablari va maxsus kasbiy ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj bilan izohlanadi.

Muammolar va takomillashtirish yo'nalishlari: Davlat siyosatining ijobiy ta'siriga qaramay, ayrim tizimli masalalar mavjud. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'plab kichik korxonalar moliyalashtirishdan foydalanishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Xususan, foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi va garov talablarining qat'iyligi ularning kengayish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda. Bundan tashqari, ishchi kuchi malakasi bilan korxonalar ehtiyojlari o'rtasida ma'lum tafovutlar mavjud bo'lib, texnik malakali mutaxassislariga bo'lgan talab taklifdan yuqori bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, norasmiy iqtisodiyot ulushining saqlanib qolishi mehnat bozorining muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Ayrim kichik biznes subyektlari faoliyatini norasmiy shaklda davom ettirayotgani ularning davlat tomonidan taqdim etilayotgan qo'llab-quvvatlash choralardan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi hamda rasmiy bandlik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat bozori tahlili davlat siyosati yangi ish o'rinlari yaratish va mehnat resurslarini diversifikatsiya qilishda ijobiy natijalar berganini ko'rsatadi. Kichik biznes, ayniqsa qishloq hududlarida hamda qishloq xo'jaligi va chakana savdo kabi tarmoqlarda bandlikni oshirishda muhim rol o'ynadi. Shu bilan birga, mintaqaviy nomutanosibliklar, moliyalashtirishga kirish imkoniyatlari va malaka nomuvofiqligi kabi masalalar mavjud bo'lib, ular qo'shimcha e'tibor va tizimli yondashuvni talab etadi. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish ushbu muammolarni bartaraf etish hamda mehnat bozorining uzoq muddatli va inklyuziv rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat bozorini tahlil qilish ish o'rinlarini yaratish, mehnat resurslarini rivojlantirish hamda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish yo'nalishlarida sezilarli yutuqlarga erishilganini ko'rsatmoqda. Hukumat tomonidan kichik va o'rta korxonalarni (KO'B) qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli tashabbuslar, ayniqsa qishloq hududlarida hamda qishloq xo'jaligi, chakana savdo va yengil sanoat kabi tarmoqlarda bandlikni kengaytirishda muhim rol o'ynadi. Normativ yuklarni yengillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish va tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali amalga oshirilgan islohotlar bandlik ko'rsatkichlarining ijobiy o'zgarishiga xizmat qildi hamda aholi qatlamlarining mehnat bozorida ishtirokini oshirdi.

Shu bilan birga, erishilgan natijalarga qaramasdan, ayrim masalalar mavjudligini qayd etish lozim. Bandlik o'sishidagi mintaqaviy tafovutlar ma'lum darajada saqlanib qolmoqda, bunda Toshkent kabi yirik shaharlar islohotlar samarasidan qishloq hududlariga nisbatan ko'proq foyda ko'rmoqda. Texnik ko'nikmalarga bo'lgan talab bilan mavjud ishchi kuchi malakasi o'rtasidagi tafovut ham mehnat bozorining uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlash nuqtayi nazaridan e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biridir. Bundan tashqari, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ko'plab kichik biznes subyektlari uchun muayyan to'siq bo'lib, ularning faoliyatini kengaytirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratish salohiyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur sharoitda O'zbekiston hukumati barqaror tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, tadbirkorlik subyektlarining davlat yordamisiz ham mustaqil rivojlanishini ta'minlaydigan siyosatga ustuvor ahamiyat berishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun uzoq muddatli tizimli islohotlarni amalga oshirish, jumladan, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik bo'yicha ta'lim va maslahat xizmatlarini kuchaytirish hamda asosiy tarmoqlarda malaka tafovutlarini qisqartirishga qaratilgan choralarni yanada faollashtirish lozim.



Umuman olganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat bozorini mustahkamlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'lida muhim ijobiy qadamlar tashlandi. Mavjud vazifalarni izchil hal etish va amalga oshirilayotgan islohotlar sur'atiga tayanib, O'zbekiston kelgusida uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi, yanada inklyuziv va barqaror mehnat bozorini shakllantirish imkoniyatiga ega. Ushbu davr tajribasi mamlakatimizda kelajakdagi mehnat va tadbirkorlik siyosatini takomillashtirish uchun muhim amaliy saboqlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4354-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-1856013?otherlang=1>
2. Ibrohimov B., Sayfiddinov S. (2024). Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari.
3. Ibrohimov B. (2024). O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni.
4. To'ychiyevich X.R. (2024). Mehnat bozori statistikasi. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(22), 586-588.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. stat.uz.
6. Nodirabegim, O. R. (2024). O'zbekistonda zamonaviy mehnat bozori shakllanishida bandlik darajasi va sifatli ta'lim tizimining ahamiyati. The Journal of Research and Development, 1(5), 3-6.
7. Xojiyev, M. (2022). Mehnat bozorini tartibga solishda rekruting agentliklarining roli. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(13), 103-107.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
